

ISSN: 2545-0573

O'ZBEKISTON SHAHARLARIDA JAMOAT-SAVDO MARKAZLARINING TARIXIY SHAKLLANISH ASOSLARI

Abduraimov Sh. M.

SamDAQI, Arxitektura fakulteti, arx.fal.dok., dotsent

Shavkatova Sh. Sh.

SamDAQI, Arxitektura fakulteti, Magistr

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Savdo markazlari, chorsu, tim, urbanizatsion, karvon, ko'chalar va maydonlar, saroylar, jamoat va diniy binolar hamda jamoat- savdo markazlari

Annotasiya:

Maqolada O'zbekiston tarixiy shaharlarda savdo markazlarini shakllanishi qadimgi davrlarga borib taqalshi, karvon yo'llarida, odamlar gavjum yerlarda urbanizatsion jarayonlar vujudga kelishi, Iqtisodiy hayotning markazi qishloq punktlari emas, balki shaharlar bo'lishi, IX asrning oxirida madaniy va arxitekturaviy ijodda yangi yuksalish ro'y berishi, Shaharlar rivojlanishi va ular xududining kengayishi natijasida savdoga asoslangan ko'cha va maydonlar shahar markazini to'liq shakllanish asoslari yoritib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O'zbekiston tarixiy shaharlarining shakllanishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ma'lumki, miloddan avvalgi IV– II ming yilliklarida O'rta Osiyo hududida urbanizatsion jarayonlar vujudga keladi. Karvon yo'llarida joylashgan erlarda va ko'plab odamlar oqimlarini qabul qiluvchi sajdagohlar asosida shahar paydo bo'lishi uchun qulay joylar mavjud edi. Shu tufayli bu erlarda miloddan avvalgi II ming yillikda Sopollitepa, Jarqo'ton qal'alari, miloddan avvalgi I ming yillikda Maroqand (Samarqand), Basileya (Ko'ktepa), Ksenippa (Shahrisabz), Nikshapa (Qarshi), Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa shaharlar vujudga keldi.

Iqtisodiy hayotning markazi qishloq punktlari emas, balki shaharlar bo'lib qoladi. Yuksak shaharsozlik san'atining rivojlanishi natijasida himoya inshootlari, ko'chalar va maydonlar, saroylar, jamoat va diniy binolar hamda jamoat- savdo markazlari binolaridan tarkib topgan shaharlar shakllana boshlaydi.

Movarounnahr, Xuroson va Xorazmdagi ijtimoiy rivojlanishning o'xshashligi, aholi yashash shakllarining umumiyligini ko'rsatadi. Himoyalangan qo'rg'onlar va ko'shklar Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda ham bor edi. Bu vohalardagi ko'shklar to'g'ri to'rtburchak, kvadrat yoki kvadratga yaqin tarhga ega bo'lgan. Ko'shklar balandroq tepalikda qurilib, qiyaroq devorga ega bo'lgan va ko'pincha 2 qavatli qilib qurilgan. Ko'shklari himoya devorlarining chizig'ida yoki qo'rg'on ichida joylashgan edilar. Xorazmdagi Yakka-Porson ko'shki klassik ko'shklarga misol bo'la oladi. Bu erda 3 qator himoya devorlari bo'lib, ular orasida yordamchi va xo'jalik binolari va o'rtada ko'shk qad ko'targan.

O'rta Osiyoning islomgacha bo'lgan davrdagi shaharlarining ba'zilar feodal hukmronlarning qo'l

ostida bo'lmay, alohida oddiy jamoat shaklida shakllanganligi bizga avvaldan ma'lum. "Savdogarlar shahri" – Paykentni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Panjakentda bo'lsa, rasmiy hokim mavjud bo'lgani bilan shahar daromadi ikki guruh xalq namoyandalari "aristokrat er egalari" va "savdogaru hunarmandlar" tomonidan nazorat qilinardi. Shaharning ikki tabaqali o'zaro boshqarish shakli bu sotsial status-demokratik ehtiyojini qondira oladigan ma'muriy bino qurilishini zarurat qilib qo'ydi. Bu bino saroydan farqli bo'lib, shu bilan bir qatorda, o'shanday rasmiy va e'tiborli bo'lishi kerak edi.

IX asrning oxirida madaniy va arxitekturaviy ijodda yangi yuksalish ro'y berdi. Bu davrda O'rta Osiyoning asosiy hududlari xalifalikdan chiqib, mustaqil somoniylar davlatiga birlashdi. O'rta Osiyoda yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro, Marv, Urganch va boshqalar yuzaga kelib, odamlar tark etgan joylarda hayot o'z o'zaniga tushdi. Shaharlar savdosi rivojlangan yirik hunarmandchilik markazlariga aylanadi. Yangi turdagi inshootlar masjid, madrasa, karvonsaroy, maqbara va savdo markazlari quriladi.


Shahar markazida esa gumbazli savdo inshootlari, ko'chalar loyihaviy jihatidan yetuk majmua hosil qilgan. Shahar darvozalari arxitekturasi shaharga kirishni ifoda etgan paytda, gumbazli savdo inshootlari arxitekturasi yorqin yuksalishni ifodalab, o'rta asr O'rta Osiyo shaharsozligining kompozision va fazoviy to'lik ifodasi bo'lib xizmat qilgan."

Xalqaro va mahalliy savdoning rivojlanishi va shaharlar rivojlanishidagi funksional talablar O'rta Osiyo shaharlarida bozorlar shakllanishiga asos soladi. Bu jarayonlar kadimgi dunyo shaharlarida boshlanib, rivojlangan o'rta asr shaharlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'rta asrlarda shaharlar markazidagi barcha ko'chalar savdoga moslashgan bulib, yagona bozor majmuasini tashkil qilgan. Shahar darvozalaridan tashqarida esa ulgurji savdo bozorlari tashkil topgan.

Shaharlar rivojlanishi va ular xududining kengayishi natijasida savdoga asoslangan ko'cha va maydonlar shahar markazini to'liq qamrab oladi. Shahar asosiy ko'chalari chorraxalari gumbazli inshootlar – chorsu va toqilar bilan bezatiladi. Savdo ko'chalarida maxsus binolar – timlar va karvon saroylar quriladi.

"Chorsu" (fors–sug'dcha so'z bo'lib, chor–turt, suk–bozor) chorrahalarda joylashgan usti yopiq bozor inshooti ma'nosini beradi. Chorsu gumbazlar bilan yopilgan savdo inshooti tarzida tarixiy adabiyotlarda ma'lum qilinishicha, Markaziy Osiyoning ba'zi ilk o'rta asr shaharlarida chorsudan tashqari **"Tim"** deb ataluvchi savdo inshootlari ham bo'lgan.

Jumladan, shunday timlar Buxoro, Ispijob, Ushturkat, Chog'oniyon, Amul, O'sh va boshqa shaharlarda qurilgan. "Tim" so'zi dastlab "bozordagi rastalar ustiga qurilgan tom" ma'nosini anglatib, keyinchalik u istalgan me'moriy berk, ya'ni usti va atroflari yopiq savdo binosiga, alohida qurilgan bozor inshooti, ixtisoslashgan usti berk savdo hunarmandchilik ko'chasi va usti yopiq savdo rastalariga nisbatan ham birday qo'llangan. Tarixchi Al–Muqaddasiy "Tim" so'zini hatto ko'tara savdo va xorijiy savdogarlarga mo'ljallangan karvon–saroylarga nisbatan ham ishlatgan. Qisqasi, ilk o'rta asrlarda savdo bilan bog'lik istalgan usti yopiq bino, ko'cha yoki inshootning "Tim" deb atalishi mumkin bo'lgan. Ta'kidlash zarurki, Tim binosining nafaqat usti, balki atroflari ham yopiq bo'lgan. Bunday savdo binolarida yozning jazirama issig'ida, qishu–kuzning sovug'i, qor yomg'irlarda ham bemalol himoyalangan holda savdo va mol xarid qilish mumkin bo'lgan. Yorug'lik bino tomini yopuvchi gumbazlar orqali ta'minlangan.



1-rasm. Samarqand va Shahrisabz shaharlaridagi tarixiy Chorsularning tarixiy yechimlari: a– Samarqand chorsusi; b–Shahrisabz Chorsusi.

Ma'lumki, XIV asr oxiri va XV asr Markaziy Osiyo fuqaro me'morchiligi tarixiga, shu jumladan, bozorlar, savdo inshootlari va hunarmandchilik ustaxonalarining qurilish tarixiga yorqin harflar bilan yoziladi. Bu davr Amir Temur va Temuriylar hukumronligiga to'g'ri kelib, unda Buyuk Ipak yo'lining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari va katta qismining egalari turonliklar hisoblangan. Samarqand esa bu davrda ushbu yo'lining markaziy savdo va tranzit shahri bo'libgina qolmay, balki ilm–fan, san'at, madaniyat, me'morchilik va hunarmandchilikning ham yuksak darajada rivojlangan markaziga aylanadi.

Samarqand ustalari va hunarmandlari ishlab chiqargan paxta gazlamalar, teridan tikilgan oyoq kiyimlari, ipakda tayyorlangan ustiboshlar, misdan yasalgan idish tavoqlar, otning egar–jabduqlari, chodir va o'tovlar, ajoyib va nafis qog'ozlar butun Sharq–G'arbda mashhur edi. Shaharga savdo-sotikqni rivojlantirish uchun bozorlar, rastalar, timlar, karvon saroylar, sarroflar, do'konlar, hunarmandchilik ustaxonalari kerak edi. Temur davrida dastlab hozirgi Registon maydonida qator ochiq savdo rastalaridan tashqari bosh kiyimlarini sotishga mo'ljallangan maxsus savdo "Timi kulox furushon" (Bosh kiyim sotuvchilar timi) bunyod etildi. Bu davrda Samarqand bozorlari shunchalik serob ediki, turli tuman mollarni issiq iqlim sharoitida sotish uchun savdogarlar va xaridorlarga qulay bo'lgan usti yopiq katta bozor qurishga zaruriyat tug'iladi.

Shu sababli Temur butun shaharni Registondagi Tim orqali kesib o'tadigan usti yopiq, savdo ko'chasini qurishga farmoyish beradi.

1936–1939 yillarda Samarqandda tadqiqot olib borgan olim Sh.Ye. Ratiyaning ma'lumotiga ko'ra, ushbu savdo ko'chasi Amir Temurning jome masjidi (hozirgi Bibixonim) va saqlanmagan Saroy Mulkxonim madrasasi binolari orasidagi maydonning janubiy qismida joylashgan timdan boshlanib, to Registon maydonigacha yetkazilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, ushbu savdo ko'chasi shaharning janubiy–g'arbiy darvozalaridan biri "Chorsu" gacha davom ettirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, butunday usti yopiq va keng savdo ko'chasi Temur davriga qadar nafaqat Samarqanda, balki butun Movarounnaxr va Xurosonda ham yo'q edi. Shu bois bunday usti yopiq bozor ko'chasini o'sha davr Markaziy Osiyo me'morchilik va shaharsozlik san'atining chinakam yangiliklaridan biri deb qarash mumkin edi. Ana shunday usti yopiq bozor ko'chalari keyinchalik Xirot, Isfaxon, Urgench, Xiva, Buxoro va O'shda ham bunyod etiladi. Ispan elchisi Klavixoning xabar berishicha, Temur davrida Samarqanda nafaqat kunduz, balki kechalari ham savdo qiladigan bozorlar mavjud bo'lgan. Asosiy ko'chalar kesishgan joylarda chorrahadagi shahar bozorlaridan tashqari mahallalar markazlarida guzar bozorlari ham ishlab turgan. Bunday bozorlar, odatda bir necha rastalar, ustaxonalar yoki do'konlardan

iborat bo'lgan. Bozorlar nafaqat shahriston ichida, balki unga yondoshgan rabodlar hududida ham ko'p bo'lgan.

XVI-XVII asrning birinchi yarmi O'rta Osiyoda qurilish faoliyatida yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Tashqi tomondan hashamatli, ichki tomondan charxlangan feodal davlat tizimi me'morchilikda qandaydir yangi jamoat binolarini barpo etishga ojiz edi. Me'morlar oldida qurilishning avvalgi dasturi turar edi. Ommaviy turarjoy uyi va boylar saroylari, bozor inshootlari va karvonsaroylar, diniy binolar – masjidlar, xonaqohlar, madrasalar qurilishi davom etdi. Bu binolar qurilishiga tub yangiliklar kiritildi. Bu holat XVI-XVII asrlardagi muhandislik-qurilish texnikasi rivojlanishini ko'rib chiqqanda yaqqol ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rojshyu I.Ye., UrbaxA.I. Arxitekturnoye proyektirovaniye obshchestvennyye zdaniy i soorujeniy. - M., 1984.
2. Revyakip V.I. Xudojestvennyye muzei. - M., 1977.
3. Stepanov V.I. Shkolnyye zdaniya. - M., 1975.
4. Ubaydullayev X.M. Mansurov Ya. Tashkent metropoliten i yego arxitektura* //Jur. «Arxitektura i stroitelstvo Uzbekistana», 1977, № 10.
5. Ubaydumayev X.M., Asamov R.D. Arxikturre zdaniy chayxan v respublikax Sredney Azii //Jur. «Arxitektura i stroitelstvo Uzbekistane», 1983, № 5.
6. Ubaydumayev X.M. Arxitekturno planirovochnoye resheniye sirkov». //Sbornik nauchnyx trudov TASHPI, 1984.
7. Ubaydumayev X.M ., Maxkamov N. Akademicheskiye lisey i professionalnyye kolledjy XXI veka // Jur. «Arxitektura i stroitelstvo Uzbekistana», 2000, № 1.
8. Ubaydullayev X.M., Abdurahmonov Y.I., Setmamatov M.V. Jamoat binolari tipologiyasi. 1—2-qism. - T., 2000.
9. Ubaydumayev X.M ., Gabibova I.A. Osobennosti proyektirovaniya bolnis fiziatrii i pulmonologii // Jur. «Arxitektura i stroitelstvo Uzbekistana», 2002, № 1.
10. Asamov R.J., Inagamova M.M. Turar joy binolari tipologiyasi. - T., 2000